

THE SIGNIFICANCE OF ARTPEDAGOGICAL TOOLS IN MILITARY PATRIOTIC EDUCATION OF YOUNG STUDENTS

ЗНАЧЕНИЕ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

TALABA YOSHLARNING HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDA ARTPEDAGOGIK VOSITALARNING AHAMIYATI

Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich¹¹Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich

– Fargʻona davlat universiteti, Harbiy taʼlim fakulteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada oʻquvchi–yoshlar, talabalarning harbiy-vatanparvarlik ruhida va vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati, ular yordamida oʻquv mashgʻulotlari, amaliy mashgʻulotlar va maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etish, oʻtkazishning shakl va uslublari toʻgʻrisida, vatanparvarlik hamda, uning jamiyat va davlat tizimida tutgan oʻrni haqida, davlat rahbarining bu borada olib borayotgan siyosatlarini, islohatlari haqida soʻz yuritilib, ilmiy va zamonaviy bilim, davlat siyosiy jarayonlariga tayangan holda muallifning shaxsiy fikr va mulohazalari bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье раскрывается значение художественно-педагогических средств в военно-патриотическом духе и патриотическом воспитании учащихся, курсантов, форма организации и проведения с их помощью учебных занятий, практических занятий и духовно-воспитательных мероприятий, о патриотизме и его месте в обществе и государственной системе, о политике и реформах главы государства. В связи с этим, и о личных мыслях и мнениях автора, основанных на научных и современных знаниях, государственных политических процессах.

Abstract

In this article, the importance of art-pedagogical tools in the military-patriotic spirit and patriotic education of students, students, form of organizing and conducting training sessions, practical sessions and spiritual-educational events with their help, about the styles, about patriotism and its place in society and the state system, about the policies and reforms of the head of state in this regard, and about the author's personal thoughts and opinions based on scientific and modern knowledge, state political processes are revealed.

Kalit soʻzlar: Oʻzbek adabiyoti va sanʼati, harbiy-tarixiy voqealar, kino sanʼati, teatr sanʼati, qahramonlikning axloqiy-ijtimoiy manbalari, badiiy adabiyot, asar, kino va spektakllar muhokamasi, jonli muloqot.

Ключевые слова: Узбекская литература и искусство, военно-исторические события, киноискусство, театральное искусство, нравственные и социальные истоки героизма, художественная литература, обсуждение произведений, фильмов и спектаклей, живой диалог.

Key words: Uzbek literature and art, military-historical events, film art, theater art, moral and social sources of heroism, fiction, discussion of works, films and plays, live dialogue.

KIRISH

Soʻz sanʼatining oʻziga xos qonuniyatlari, adabiyotning ijtimoiy hayotdagi oʻrni, badiiy adabiyotning oʻziga xos xususiyatlari, badiiy ijod turlari, ijodiy jarayon haqidagi fikrlar oʻquvchi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Ayrim asarlarning yaratilishi, asar muallifi, asardagi qahramon va obrazlar, unda tasvirlangan voqea-hodisalar mohiyatini chuqurroq anglash uchun tarixiy sharoit va geografik muhitni bilish zarurati ham paydo boʻladi. Bu oʻz-oʻzicha adabiyotning tarix va geografiya fanlari bilan doimiy aloqada boʻlishini taqozo etadi. Musiqa, teatr, kino, tasviriy sanʼat va boshqa sanʼat turlari bilan aloqadorlik haqida gapirishga hojat yoʻq. Biz bu yoʻnalishda pedagogika va psixologiya turkumidagi fanlarni alohida taʼkidlashimiz joiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mashhur yozuvchi Sent Ekzyuperi badiiy adabiyotning maʼnaviy ehtiyoj ekanligini taʼkidlab, shunday degan edi: “Bu dunyoda faqat bir muammo bor — odamlarga hayotdan maʼnaviy qoniqlash hissini qaytarish kerak. Maʼnaviy boyliksiz qalb toshga aylanur... Komillikka yoʻnaltirilgan didni tarbiyalamoq lozim” Modomiki, badiiy adabiyotni oʻrganishdan koʻzda tutilgan bosh maqsad insonning tarbiyasiga ijobiy taʼsir oʻtkazish ekan, demak, bunda ayrim pedagogik hamda psixologik qonuniyatlarning hech boʻlmaganda umumiy qonuniyatlarini bilmasdan turib olgʻa qadam tashlashning imkoni boʻlmaydi. Bu sanoqni yana davom ettirish mumkin. Adabiyotni boshqa ijtimoiy

fanlar bilan bog'lab o'rganish hayotiy zaruratdir. Birgina 9-sinf "O'zbek adabiyoti" darslik majmuasini shu nuqtai nazardan ko'zdan kechiraylik. Darslik-majmua "Xalq og'zaki ijodi", "O'zbek adabiyoti tarixi", "XX asr o'zbek adabiyoti" hamda "Jahon adabiyoti" qismlaridan tashkil topgan. Yuzaki qaragandayoq bu mavzularni o'tishda etnografiya, tarix, geografiya, ona tili, adabiyot tarixi, san'at tarixi, teatr bilan nechog'lik bog'lanib ketganligini tasavvur etish mumkin.

9-sinfda adabiyot tarixiga oid manbalar o'tilganida asarning tili va uslubini ona tilidagi uslub turlari, til vositalari, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, uning o'zi hamda ko'chma ma'nosi va boshqa tushunchalarga murojaat qilinishi tabiiydir.

5-sinfda "Afsonalar" mavzusining o'tilishida o'quvchilarning tarix darslarida olgan bilimlari qo'l keladi. Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchi dushmanlarga qarshi kurashi tarixi Alpomish, Shiroq, To'maris kabi obrazlarning ijtimoiy-estetik ahamiyatini, tarixiy qimmatini to'laroq tushunishga yordam beradi.

Tarix darsliklariga chuqurroq nazar solsak, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda "Boburiylar sulolasi davrida Hindiston va uning madaniyati" mavzulari o'quvchilarning adabiy materialni oson va teranroq tushunib yetishlariga imkon yaratadi.

Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in'ikosini "Boburnoma"da ko'rgan bo'lsak, ularning shoir ruhiyatida qanday aks etgani uning she'rlarida namoyon bo'ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarida aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

**Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim – xatolig' bo'ldi,
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.**

U shoh bo'lishiga qaramasdan uning yuragi hamisha o'z yurti tomon talpinib yashagan, bejizga aytmaydilar-ku "O'zga yurtida shoh bo'lguncha o'z yurtida gado bo'l" deb.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy adabiyot olamni o'zlashtirishning o'ziga xos vositasi va manbaidir. Bu jihatdan u fan bilan yaqinlashadi. Olamni aks ettirishdagi obrazlilik bilan undan ajralib turadi. Badiiy adabiyot olamni har doim ko'rsatmalarga boy tarzda ko'rsatadi. Eng muhimi, ularda o'quvchi qalbiga ta'sir ko'rsatadigan estetik lazzat va huzur, ma'naviy saboq mavjud bo'ladi. Bularning barchasi o'quvchining qalbida yuksak ma'naviy tuyg'ularning shakllanishi hamda ulardan bahramandlik sharofati bilan hosil bo'ladigan ma'naviy qoniqishga olib keladi.

Biz harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tamoyillari haqida so'z yuritganimizda, bizning ixtiyorimizda bo'lgan, insonlarning hissiyotlari va ongiga ta'sir etishga aniq yo'naltirilgan barcha shakl va usullardan to'liq va ijodiy tarzda foydalanishni nazarda tutamiz.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida asar mualliflari va qahramonlari bilan o'tkaziladigan uchrashuvlar katta ahamiyatga egadir. Chunki, ular o'zlarining hikoyalari bilan o'quvchilarga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsata oladilar, bu esa uchrashuv qatnashchilari xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Yaxshi tashkil etilgan bunday uchrashuvlarning yoshlarga tarbiyaviy jihatdan ta'siri ham yuqori bo'ladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida kino, teatrning tutgan roli. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlar, yoshlarning ma'naviy e'htiyojlariga to'la javob beradi, chunki ularda yoshlarga xos bo'lgan sarguzashtlarga intilish, hayotda o'zining munosib o'rnini egallash va fidoyilik namunalari hikoya qilinadi. Masalan, "Amir Temur", "Mendirmen Jaloliddin", "General S.Raimov", "Jasur", "Ilhaq" va boshqa filmlar shular qatoridandir. Ona-Vatanga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, bevosita hayotiy ideallar bilan bog'langan bo'lib, milliy g'oya va milliy mafkuramizning asosi hisoblanadi.

Bunga Zulfiqor Musoqov tomonidan suratga olingan "Vatan" filmini-misol qilishimiz mumkin. Film Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekistondan ketib qolgan o'zbekistonliklar hayotidan hikoya

qiladi. Filmda bosh rollarni Abdumannon Ubaydullayev, Muzaffar Sa'dullayev, Ra'no Shodiyeva, Bobur Yo'ldoshev, Jahongir Foziljonov, Temur Musoqovlar ijro etishgan.

AQSHda yashab kelayotgan Qurbon ismli qari odam Ikkinchi jahon urushida qatnashgan. Ona qishlog'ining sog'inchi tinchlik bermay, bir kuni Toshkentga yetib keladi. Bu yerdan taksi orqali qishlog'iga yo'l oladi. Maqsad — ona Vatanining diydoriga to'yish va mansab uchun o'zini sotgan dushmanidan qasos olishdir.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi muammolari respublikamiz matbuoti, radiotelevideniyasi, kino, teatr va tasviriy san'atlarining diqqat e'tiboridadir.

Kino yoshlar o'rtasida eng ommaviy san'at turi hisoblanadi. Sotsiologik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz yoshlarining 80%- kinotomoshabinlardir.

Xalqimizning o'tmishida O'zbekiston Respublikasi ozodligi, mustaqilligi uchun olib borgan kurashlarini badiiy va ma'naviy jihatdan tushunib yetish, xalqimiz taqdiridagi suronli yillarning buyuk sinovlari aks ettirilgan voqealarga chuqur nazar tashlash, ularning tarixiy rivojlanishidagi ahamiyatini, ozodlik kurashini olib borgan ajdodlarimizning ommaviy fidoyiliklarining manbalarini falsafiy jihatdan mushohada qilish, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlarning bosh maqsadidir.

Bunday filmlar o'tkir syujetli, chuqur falsafiy ma'noga, shuningdek, sarguzasht voqealarga boy bo'lsa, ular yoshlar tarbiyasida eng samarali vositalar bo'lib qoladi.

Eng yaxshi harbiy kinofilmlarda jasurlik, qahramonlik manbalarini badiiy jihatdan tadqiq qilish, Vatanga bo'lgan muhabbat bilan ifodalanadi. Bu ruhiy kalit hisoblanib, u shaxsning ichki dunyosidagi eng chuqur kechinmalarning anglashga imkon beradi. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlar, yoshlarning ma'naviy ehtiyojlariga to'la javob beradi, chunki ularda yoshlarga xos bo'lgan sarguzashtlarga intilish, hayotda o'zining munosib o'rnini egallash va fidoyilik namunalari hikoya qilinadi. Masalan, "Amir Temur", "Mendirman Jaloliddin", "General S.Raximov", "Jasur", "Ilhaq" va boshqa filmlar shular qatoridandir.

Harbiy-vatanparvarlik va harbiy-tarixiy mavzudagi spektakllar, teatr san'atining o'ziga xos bo'lgan ifoda vositalari yordamida, spektaklda namoyish qilinayotgan davrning, milliy-ozodlik harakatining suronli yillari ruhiy holatini tomoshabinlar diqqatiga yetkazib beradi, yosh tomoshabinga o'zini tarixiy voqealarning bevosita qatnashchisi sifatida his qilishga imkon beradi. Shuning uchun hozirgi vaqtdagi qahramonona-vatanparvarlik mavzusidagi spektakllar, badiiy filmlar tomoshabinlar diqqatiga qaratilgan ruhiy his-hayajonli murojaatdan boshlanadi. Spektakl va filmlarning bunday boshlanishi, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan zamonaviy tomoshabinni qahramonona o'tmishni chuqur his qilishga, uni o'sha davr ruhiy holatiga kirishishiga yordam beradi.

Bunday spektakllardan Said Ahmad qalamiga mansub "Ufq" asari asosida sahnalashtirilgan "Ufq" spektaklini oladigan bo'lsak. Unda Tursunboy obrazi orqali yoshlarni o'z vatani himoyasidan qochib qamishzor ichida bekinib onasi ovqat olib kelishini kutib yashaganligi va oxirida xor bo'lib o'lim topishi juda ham ta'sirli sahnalashtirilgan. Bu spektaklni ko'rgan yoshlarda o'z yurtini himoyasidan qochganlarga nisbatan nafrat tuyg'usi uyg'onadi.

Ona Vatanga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, bevosita hayotiy ideallar bilan bog'langan bo'lib, milliy g'oya va milliy mafkuramizning asosi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi kunga qadar o'quv yurtlarida batamom bartaraf etilmagan ba'zi bir umumiy kamchiliklarni yengib o'tishni talab qiladi.

So'z bu yerda, avvalambor, o'quv yurtlari va o'quv dasturlarida va darsdan tashqari ishlarda o'zining muhim o'rniga ega bo'lmagan estetik ta'lim va tarbiya haqida bormoqda. Ana shu kamchiliklar oqibatida yoshlarning umumiy ma'naviy rivojlanishida sezilarli muammolar paydo bo'lmoqda. Ularning san'at, shuningdek, kino va teatr san'ati sohasidagi bilimlar darajasi juda sayoz bo'lib, bu muammolar o'zining yechimini kutmoqda.

Teatr san'ati — nafis san'at turlaridan bo'lib, o'zining emotsional jihatlari bilan barkamol insonning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Agar o'quvchi yoki talaba teatrni san'at turi deb qabul qilishga tayyor bo'lsa, u holda uning kundalik san'at emasligi, uni har doim ham tomosha qila olmaslik, faqat teatr uchun xos bo'lgan emotsional ruh, samimiy vaziyat singari jihatlar bilan sezilmay qoladi.

Teatrda adabiyotda ham, kino va boshqa san'at turlarida ham bo'lmagan vaziyat, ya'ni teatr sahnasi va tomoshabinlar zalining, aktyor va tomoshabinning o'zaro jonli muloqoti, teatr tomoshasining butun ruhiy holati bilan boyitilgan jonkuyarlik tuyg'ulari bor.

Yosh tomoshabinlar har doim sahnada bo'lib o'tayotgan voqealarni chuqur ehtiros bilan qabul qiladilar. Ular ertak qahramonlarining harakatlarini hayajon, qichqiriq va ogohlantirishlar bilan kuzatib boradilar.

Shu vaqtdan boshlab bolalar, nohaqlikning dushmani, qahramonning esa faol yordamchisi bo'lishni o'rganadilar. Keyinroq bu jon kuyinishlar ochiq namoyon bo'lmasa-da, tomoshabinlar sahnadagi voqealarning qatnashchilari bo'lib qoladilar. Tomoshabinlar zali rejissyor, aktyor va muallif spektaklning qanday ishtirokchilari bo'lsa, ular ham xuddi shunday ishtirokchilaridir. Hozirgi yoshlar ko'proq harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi kitoblarni o'qimoqdalar, kino va teatrlarni tomosha qilmoqdalar. Bunday asarlarga bo'lgan qiziqish ma'lum jihatdan, yoshlarning o'tkir syujetli sarguzashtlarni, yorqin va kuchli qahramonlarning obrazini topishga bo'lgan istaklari bilan tushuntiriladi.

XULOSA

Yuqorida aytilganidek, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida kino, teatr va adabiyotning roli kattadir. Ulardan foydalanish o'quv va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish, CHQBT rahbari, shuningdek, boshqa fan o'qituvchilarning salohiyati, ta'lim va tarbiyaning shakl va uslublarini chuqur bilishlari va ularni amalda qo'llay olish malakalariga bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyot, teatr va kino san'atining salmog'ini bundan-da, oshirishimiz lozim va bu yo'lda hammamiz bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilmog'imiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017y. – 488 b.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. SH. Tilavoldiyev, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi, 2018 y.
4. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov. Vatan tuyg'usi - T. 1996 y.
5. Vatan himoyasi - muqaddas burch T. Harbiy nashriyot. 2000 y.
6. SH.Tilavoldiyev, Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. -Farg'ona. 2021 y.